

ONA TILI FANIDA BO‘G‘IN USTIDA ISHLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

Termiz davlat pedagogika instituti 1-kurs talabasi

Usmonova Dilnura

Annotatsiya: Ushbu maqolada so‘z tuzilishining asosiy bo‘lagi bo‘lgan bo‘g‘in bilan ishlash o‘qitish san’ati sifatida talqin etiladi. Muallif bo‘g‘inni nafaqat grammatik birlik, balki o‘quvchining nutqiy hissiyotini shakllantiruvchi vosita sifatida ko‘rib chiqadi. Bo‘g‘in tushunchasiga fonologik, akustik va artikulyatsion yondashuvlar ilmiy asosda yoritiladi.

Kalit so‘zlar: bo‘g‘in, unli tovushlar, fonologik nazariya, akustik nazariya, artikulyator nazariya, ochiq bo‘g‘in, yopiq bo‘g‘in.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini va maqomini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida “2020-2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi” qabul qilindi. Bu respublikamizda davlat tili to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirish va o‘zbek tilining xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini oshirishga xizmat qiladi. Bo‘g‘in — tilshunoslikda so‘zning alohida talaffuz qilinadigan kichik bo‘lagi bo‘lib, u boshlang‘ich sinflarda savod o‘rgatish davrida shakllanadigan eng muhim til birliklaridan biridir. Bo‘g‘in ustida ishlash orqali o‘quvchining o‘qish va yozish malakasi shakllanadi, tovush va so‘z qurilishi haqida dastlabki tasavvurlar hosil bo‘ladi. Bo‘g‘in murakkab tilshunoslik tushunchasi bo‘lgani sababli boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga uning ilmiy qoidalari berilmaydi. Amaliyotda ular so‘zdagi unli tovushlar soniga qarab bo‘g‘inlarni ajratishga o‘rganadilar: ya’ni nechta unli bo‘lsa, shuncha bo‘g‘in bor degan oddiy qoidaga asoslanadilar. Fonologik nazariyaga ko‘ra, bo‘g‘in tarkibida unli va undosh tovushlarning joylashish tartibi muhim ahamiyatga ega. Bu nazariyada tovushlar kombinatsiyasi orqali har bir til uchun xos bo‘lgan ideal

bo'g'in modeli shakllantiriladi. Fonologik nuqtayi nazardan bo'g'in sillabema deyiladi, uni o'rganadigan soha esa sillabika deb nomlanadi.

Sillabema- bo'g'inning fonologik birlik sifatidagi nomi bo'lib, bu bo'g'inga asoslangan o'qitish usuli bo'lib, o'quvchilarga o'qish va yozishni o'rgatishda bo'g'inlardan foydalangan holda so'zlarni tushunish va talaffuz qilishni osonlashtiradi.

Sillabika-bo'g'in haqidagi ma'lumot bo'lib, bu savod o'rgatish jarayonida qo'llaniladigan bo'g'inga asoslangan o'qitish usuli bo'lib, o'quvchilarni harflardan emas, balki bo'g'inlardan boshlab o'qishga o'rgatadi. Bu metod, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qulay bo'lib, o'qish malakasini tez va aniq shakllantirishga yordam beradi.

Akustik yondashuv bo'g'inni nutq oqimidagi jarangdorlikni tartibga soluvchi birlik deb ko'radi. Ya'ni bo'g'in — tovushning eshitilish kuchi va davomiyligi bilan belgilanadigan fonetik birlikdir. Artikulyator nazariya esa bo'g'inni talaffuzdagi nafas, og'iz bo'shlig'i harakati va muskullar kuchlanishi bilan bog'laydi. Ba'zilar bo'g'inni talaffuzi qiyin tovushlar ketma-ketligini unlilar yordamida yumshatish deb tushunsa, boshqalar bo'g'inni bir nafas turtkisiga to'g'ri keluvchi birlik sifatida talqin etadi. Fransuz tilshunosi M. Gammon (1929-yil) bo'g'in — bu artikulyatsiya jarayonidagi muskullar kuchlanishi va bo'shashishining almashinuvi deb hisoblaydi. Bunda nutq oqimidagi tovush tizimining izchil holatda kuchlanishi va bo'shashishi nazarda tutiladi, ya'ni nutq qismlari kuchlanish bilan boshlanadi va yuqori nuqtasidan kuchlanish bilan tugaydi. Shu takrorlanish bo'g'inga ajralishdir. Bu o'zbek tilshunosi Ayub G'ulomovning Bo'g'in nutqning bir nafas to'lqinidagi qismidir, degan qarashiga ham moye keladi. "Boshlang'ich" so'zi 3 bo'g'inli bo'lib, har biri kuchlanish bilan boshlanadi. Unlisi baland nuqtasi hisoblanib, undoshda kuchsizlanib tugaydi. Bo'g'in kuchli boshlanishi va kuchli tugashi ham mumkin.

Bo'g'inning pedagogik-metodik ahamiyati ham bor; birinchi sinf o'quvchilariga to'g'ri yozish va o'qishni o'rganishlari uchun juda ham kerak bo'ladi. Orfografiyada ham

juda zarur bo'lgan qoidalaridan bir bu bo'g'in ko'chirish qoidalari yozuvda so'zning bir qatorga sig'may qolgan qismi ikkinchi qatorga bo'g'in asosida ko'chiriladi;

Bo'g'inlar qanday tovush bilan boshlanishiga ko'ra ham ikki xil bo'ladi:

1) berkitilgan bo'g'in undosh bilan boshlanadi: ta-lab, tinch-lik.

2) berkitilmagan binoan unli bilan boshlanadi: o'-qish, a'-lo.

O'zbek tilida bo'g'in quyidagi shakllarda uchraydi:

1. Faqat unlidan iborat: u, e, o (olmosh va undov so'zlar).

2. Unli va undoshdan iborat: un, ot, it. Bo'g'in oxirgi tovushga qarab quyidagicha tasniflanadi:

Ochiq bo'g'in — unli bilan tugagan so'zlar: o-na, lo-la.

Yopiq bo'g'in — undosh bilan tugagan so'zlar: mak-tab, us-toz.

So'zlarni bo'g'inlar soniga ko'ra so'zlar bir bo'g'inli (ish, ko'k, sen, oz...); ikki bo'g'inli (da-la, bu-gun, ik-ki...); ko'p bo'g'inli (a-ra-va, qo'-g'ir-choq...) bo'ladi. Bo'g'inga ajratish bilan bo'g'in ko'chirishning asosiy farqi bor. Bo'g'inga ajratishda unlining o'rni katta lekin bo'g'in ko'chirishda faqat unliga qarab ajratib bilmaymiz. Masalan: ona bu so'zni bo'g'inga ajratgan paytimizda o-na tarzida ajratilda, agar shu so'zni bo'g'in chirish qoidalarida ko'chirsak buni iloji yo'q chunki bitta harf satrni oxirida ham qolmaydi yangi satrga ham o'tmaydi shu sababli bu so'zni bo'g'inga bo'lmaymiz faqat bo'g'in ajratish qoidalariga to'g'ri keladi. Bo'g'in ustida ishlash quyidagi shakllarda olib borilishi mumkin:

1. Tahliliy usul – So'zni avval tovushlarga, keyin bo'g'inlarga ajratish. Bu usulda o'quvchi avval so'z tarkibini tahlil qiladi, tovushlarni idrok etadi, so'ngra bo'g'inlarni aniqlab, so'zni tuzadi. Bu jarayon yozuv va talaffuzni uyg'unlashtirishda yordam beradi.

2. Sintetik usul – Harflarni birlashtirib bo'g'in hosil qilish va undan so'z tuzish. Bu usulda o'quvchilar "kichikdan kattaga" tamoyili asosida so'zlarni yig'ib o'rganadilar. Bu

ularning analiz-sintez faoliyatini rivojlantiradi va mustahkam savod ko'nikmasini shakllantiradi.

3. Aralash usul – Yuqoridagi ikki usulning uyg'unligida qo'llaniladi. Bu usul o'quvchining tahlil (ajratish) va sintez (birlashtirish) ko'nikmalarini bir vaqtda rivojlantiradi, savod o'rganish jarayonini mustahkamlaydi.

4. Vizual usul – Bo'g'inlar rang bilan ajratilib, ko'z bilan idrok etishga yo'naltiriladi.. Bu usul o'quvchilarning ko'z bilan idrok qilishini kuchaytiradi va eslab qolishni osonlashtiradi.

Bu metodlardan foydalanish natijasida o'quvchilar bo'g'inlarni to'g'ri talaffuz qilish, yozishda tovushlarni tushirib qoldirmaslik va diktantlarda kam xato qilishni o'rganadilar.

Tilshunoslikda bo'g'in – bu tovushlarning talaffuzdagi eng kichik segmentidir. Har bir so'z bo'g'inlarga ajraladi, va o'quvchilar so'zlarni o'qish yoki yozish jarayonida aynan shu bo'g'in tuzilmasidan foydalanadi. Bo'g'inlar ustida ishlash orqali o'quvchi tovushlar ketma-ketligini yaxshiroq anglaydi, bu esa ularning savodxonlik jarayonini soddalashtiradi. So'zlarni bo'g'inlarga to'g'ri ajrata bilish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunonchi: 1) yozuvda so'zning bir qatorga sig'may qolgan qismi ikkinchi qatorga bo'g'in asosida ko'chiriladi; 2) barmoq vaznida yoziladigan she'r misralari bo'g'in sonining teng bo'lishiga asoslanadi; 3) birinchi sinf o'quvchilarini savdoga o'rgatish davrida ham asosiy diqqat so'zlarni bo'g'inlab o'qish va yozishga qaratiladi.

Bo'g'in ko'chirish qoidalarini **orfografiya** bo'limida o'rganiladi.

Agar so'zda **ng** tovushi ishtirok etayotgan bo'lsa, quyidagilarga e'tibor berish kerak.

* So'z bo'g'inlarga ajratilganda **ng** ikki unli orasida keladigan bo'lsa u ikkinchi unli bilan bo'g'in hosil qiladi: **si-ngil, ko'-ngil**.

* Agar **ng** dan keyin undosh keladigan bo'lsa, **ng** oldingi bunda qoladi: **mang-lay, tang-lay**.

*Kongress, ingliz kabi soʻzlar chet tillardan oʻzlashgan soʻzlar boʻlgani uchun boʻgʻinga quyidagicha ajraladi: **kon-gress, in-gliz, shtan-ga.**

Xulosa qilib aytganda, boʻgʻin ustida ishlash – bu faqatgina tovushlarni oʻrgatish emas, balki bolalarning ogʻzaki va yozma nutqini rivojlantirishdagi muhim bosqich hisoblanadi. Boʻgʻin orqali oʻquvchi soʻzlarning tuzilishini tushunadi, tovushlar orasidagi aloqani his qiladi va asta-sekin mustaqil oʻqish hamda fikr bildirishga oʻrganadi. Agar bu jarayonda zamonaviy taʼlim texnologiyalaridan foydalanilsa, oʻquvchilar uchun mashgʻulotlar yanada qiziqarli va esda qolarli boʻladi. Masalan, oʻyinlar, kartochkalar, ovoqli topshiriqlar yoki videodarslar orqali boʻgʻinni oʻrganish darsni jonlantiradi, har bir bola faol qatnashadi. Bu usullar yordamida oʻquvchilarda nafaqat fonetik bilim, balki eʼtibor, eslab qolish, mustaqil fikrlash kabi koʻnikmalar ham rivojlanadi. Boʻgʻin ustida ishlashning yana bir foydali jihati – bu har bir bola oʻzining talaffuzidagi xatolarni tuzatib boradi, toʻgʻri yozishga oʻrganadi va oʻz fikrini ravon ifoda eta boshlaydi. Darslarda oʻqituvchi bolalarni ragʻbatlantirib, ularga eʼtibor va quvnoqlik bilan yondashsa, natijasi yanada samarali boʻladi. Shuning uchun boʻgʻin ustida ishlash har bir boshlangʻich sinf oʻqituvchisi uchun muhim vazifalardan biridir. Bu ish toʻgʻri va quvnoq tarzda olib borilsa, bolalarning savodxonligi mustahkamlanadi, nutqi boyiydi va oʻqishga boʻlgan qiziqishi ortadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. K. Qosimova, S. Matchonov, X. Gʻulomova, Sh. Yoʻldosheva, Sh. Sariyev – Ona tili oʻqitish metodikasi
2. M. T. Irsiqulov – Tilshunoslikka kirish
3. Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi (OʻzME), 2000-yil
4. Shohruh Poʻlatov-- "Ona tili qulay qoʻllanma" Toshkent-2020.
5. Nilufar Rasuliva--"Ona tilidan maʼruzalar".
6. M. Hamrayev, D. Muhamedova, D. Shodmonqulova, X. Gʻulomova, Sh. Yoʻldosheva--Ona tili.
7. Jamolxonov H Hozirgi oʻzbek adabiy tili TOSHKENT 2005
8. Qosimova. Boshlangʻich sinflarda imlosi qiyin soʻzlarni oʻrgatish-1964

9. Shodmonov. E, Nafasov.T Hozirgi adabiy tili
10. Qarshiyevna U. M. Linguistic Views Of Mahmud Kashgari //Central asian journal of social sciences and history. – 2022. – T. 3.– №. 12. – C. 336-340.
11. Muminova Umida Qarshiyevna . Lexical-Grammatical Characteristics of the Noun in Ancient Turkish Language International Interdisciplinary Research Journal Volume 2 Issue 1, Year 2023 ISSN: 2835-3013. P. 389-394 <https://univerpubl.com/index.php/synergy>
12. Umida Muminova Qarshiyevna. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarining pedagogika tarixida tutgan o'rni// Tadqiqotlar jahon ilmiy –metodik jurnal. 6-son 2-to'plam, yanvar 2023, 332-335 B
13. Umida Karshievna Muminova. Phytonyms in the work "Mahbub ul-qulub". International scientific and practical conference "Trends of modern science and practice" Ankara, Turkey 2023.P 46-50
14. Sharofova Nilufar Ilhom qizi, Muminova Umida Karshiyevna. Forming Concepts of Grammar and Word Formation in Primary Grades. Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2(4), 164–168. Retrieved from <http://univerpubl.com/index.php/semantic/article/view/1033>
15. Chorshanbiyeva Ra'no, Muminova Umida Karshiyevna, Innovative Approach as a Condition for Improving the Educational Process in a Modern School , Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education: Vol. 2 No. 4 (2023): Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education
16. Davlatmamatovna, H. G. Qarshiyevna, M. U. . (2023). Popular Scientific Texts in Elementary School Textbooks and Methods of their Study. Web of Semantic: Universal Journal on Innovative Education, 2(4), 125–128. Retrieved from <http://univerpubl.com/index.php/semantic/article/view/1006>